

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 3-son)



PEDAGOGIKA  
PEDAGOGY

## YOSHLAR MA’NAVIY DUNYOSINI YUKSALTIRISHDA JADIDCHILIK NAMOYONDALARINING MA’NAVIY ME’ROSIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Beginqulov Zarif Axmadovich*

*O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.  
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi (DSc)  
Email: [zarifbeginqulov77@gmail.com](mailto:zarifbeginqulov77@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyatlari, yoshlar ma’naviy dunyosini yuksaltirishda millatimizning boy tarixini o‘zida aks ettirgan jadidchilik namoyondalarining ma’naviy me’rosidan foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** jadidchilik, tarbiya, ilm, yaxshi xulq, komil inson, maktab, yetuklik, yuksalish.

### ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ДЕЯТЕЛЕЙ ДЖАДИДИЗМА В ВОЗВЫШЕНИИ ДУХОВНОГО МИРА МОЛОДЕЖИ

**Аннотация:** В данной статье речь пойдет о важнейших особенностях деятельности джадидов в воспитании гармоничного поколения, использовании духовного наследия джадидистских деятелей, отражающего богатую историю нашей нации, в поднятии духовного мира молодежи.

**Ключевые слова:** джадидизм, воспитание, наука, хорошее поведение, совершенный человек, школа, зрелость, возвышение.

### THE IMPORTANCE OF USING THE SPIRITUAL HERITAGE OF JADIDISM FIGURES IN UPLIFTING THE SPIRITUAL WORLD OF YOUTH

**Abstract:** This article will focus on the most important features of the Jadid activities in educating a harmonious generation, using the spiritual heritage of Jadid figures reflecting the rich history of our nation, and raising the spiritual world of youth.

**Keywords:** Jadidism, education, science, good behavior, perfect person, school, maturity, elevation.

**Kirish.** Mamlakat taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning kelajak istiqbollari bevosita amaldagi ta’lim tizimining rivojiga bog‘liq ekanligi hech kimga sir emas. Mustaqil fikriga ega bo‘lgan, yuksak ma’naviyatli, ijodkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bejizga: “... Biz Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda sog‘lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san’at va sport bo‘yicha salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz.

Takror va takror aytaman: **Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi!” [1], – deb ta’kidlagan edi.**

**Adabiyotlar tahlili.** Ma’lumki, jadidchilik deganda ko‘z oldimizga XIX oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllangan, jamiyatning eng ilg‘or fikrli qatlamlari, ya’ni ona Vatanni mustaqil, ozod holda ko‘rish, xalqlarni birlashtirish, millatning o‘zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish, butun o‘lkaning milliy mustaqillikka erishishini o‘zlarining bosh maqsadlari deb hisoblagan yangilanish harakati namoyondalari keladi. Mazkur harakat vakillari eski usul maktablarining o‘rniga yangi, zamonaviy qiyofadagi maktablarni yaratib, amaldagi ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga intildilar. Ularning asosiy shiori – “Ilm va taraqqiyot orqali milliy uyg‘onish” edi.

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o‘rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma’rifatparvarlik kabi masalalar edi. Jadidchilik namoyondalari yoshlar tarbiyasi masalasiga hayot yoki mamot masalasi deb qaraganlar. Ular o‘zining ta’lim faoliyatida yosh avlodga zamonaviy ilm o‘rgatish, eski ta’lim tizimining noxush tomonlarini bartaraf etishni maqsad qilishdi.

**Tahlil va natijalar.** Milliy istiqloлга erishib, jadallik bilan odimlab borayotgan davlat va jamiyatning ilm-fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi erishilayotgan yutuqlar, har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimiz ma’naviyatini yanada rivojlantirishda, yoshlar ma’naviy dunyosini yuksaltirishda millatimizning boy tarixini o‘zida aks ettirgan tarixiy, badiiy hamda ilmiy asarlarning alohida o‘rni bor. Jumladan, jadidchilik namoyondalarining asarlari ham bundan mustasno emas. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan Turkiston ma’rifatparvar ziyolilarining yirik vakillari bo‘lmish Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va boshqalarning asarlarida faqatgina zararli odatlardan holi bo‘lgan, jismonan va ma’naviy sog‘lom yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish orqaligina jamiyat taraqqiyotini ta’minlash mumkinligi alohida ta’kidlangan.

Behbudiy (1875-1919) o‘z asarlarida yoshlarni jismoniy faollik, zararli odatlardan saqlanish, spirtli ichimliklarni iste‘mol qilmaslik kabi ko‘nikmalarga amal qilishga ham chaqirgan.

U yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o‘quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo do‘konlarini qattiq tanqid ostiga oladi [3]. Behbudiy bunday do‘konlarning masjid va madrasalar yaqinida joylashganligi bolalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini alohida ta‘kidlab, barchani kelajak avlodni sog‘lom o‘stirishga, zararli odatlardan voz kechishga chorlaydi. U sog‘lom, aqlli, bilimli farzandlarimiz o‘sib ulg‘ayib, o‘qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar bo‘lib yetishib chiqishini orzu qilgan.

Insonga xos bo‘lgan turli-tuman fazilatlar mavjud, ularning eng asosiylari nomuslilik, vatanparvarlik, iymon-e‘tiqod va vatan uchun fido bo‘lish. O‘quvchi va talaba yoshlarda bunday sifatlarni shakllantirishda jadid ma‘rifatparvarlarning merosi, ayniqsa, Abdulla Avloniy o‘g‘itlaridan foydalanish tarbiya jarayonining samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi [4, 65].

Pedagogika fanini yaxshi bilgan, bu sohada kuchli va keng ma‘lumotga ega bo‘lgan Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari muhim axloqiy va ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu asarni yaratishda adib xalq pedagogikasining ijobiy tajribalaridan maqsadli, unumli va o‘z o‘rnida foydalanadi. Mazkur asarda u insondagi ijobiy va salbiy fazilatlarining tavsifi, yoshlar tarbiyasining ahamiyati, bolani qanday qilib tarbiyalash va tarbiyani amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlari, jamiyatda komil insonlarni shakllantirishning muhim jihatlari bayon qilgan.

Abdulla Avloniyning nazarida, ilm shunday katta kuchki, u halolni haromdan ajratishga, yaxshini yomondan, savobni gunoh ishlardan farq qilishga, insonning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishga yordam beradi, ilmli kishi salbiy illatlar va zararli odatlardan uzoqlashadi, yaxshi fazilatlar bilan o‘zгалarga o‘rnak bo‘ladi. “U madaniyat, insoniyat, ma‘rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe‘llardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa muhabbat va e‘tiqodimizni ortdirur, janobi xaqning azamat va qudratini bildirur. Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur” [2]. Shu fikrlardan ham bilish mumkinki, buyuk ma‘rifatparvarlar Abdulla Avloniy axloq bilan ilm-fanni o‘zaro bog‘liq holda qaragan. Ularni bir-biridan ayirib bo‘lmasligini yaxshi tushungan.

Munavvar qori (1878-1931) XIX asrning oxiridan boshlab jadidchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshladi. 1901-yilda o‘z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida jadid maktablarini ochadi.

M.Abdurashidxonov yurtimizda 1918-yili ochilgan zamonaviy oliy ta‘limga asoslangan ilk o‘quv dargohi – Turkiston dorulfununining tashkilotchisidir. Oliy ta‘limda uning rahbarligida turli yo‘nalishdagi naqliy va aqliy ilmlarni o‘z ichiga olgan fanlar joriy etilgan.

Albatta, bu ishlarni tashkil etish M.Abdurashidxonov uchun oson kechmagan. Avvalo mutaxassislar masalasi dolzarb muammolardan edi.

Yirik olim, davlat va jamoat arbobi, pedagog, turli ilmlar sohibi M.Abdurashidxonov xalq, vatan taqdirini o‘ylab butun umrini fidokorona, mashaqqatli maqsadga baxshida etdi. Mamlakat ozodligi, xalq ma’naviyatining oshirilishi, elimizning “madaniy” xalqlar darajasiga yetishida ilm-ma’rifatning naqadar muhimligini barcha asarlarida e’tirof etdi. Islom dini ilmlarini o‘rganish bilan birga, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish milliy uyg‘onish davri ma’rifatchiligining asosiy g‘oyalardan biri edi. Taraqqiyparvar ziyolilar qatori M.Abdurashidxonov ham butun insoniyatga, jamiyatimizga foydasi tegadigan zamonaviy ilm-fanning yurtimizga kirib kelishiga katta hissa qo‘shdi [6]. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta’lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so‘z yuritib, o‘z farzandining ma’rifatli bo‘lishi uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta’kidlagan.

Fitratning jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk avlodni yetishtirish g‘oyalari uning 1915-yilda e’lon qilingan “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” asarida o‘z ifodasini topdi. Fitrat nuqtayi nazariga ko‘ra, farzandning har jihatdan to‘laqonli inson bo‘lib shakllanishi uchun unga jismoniy, aqliy va ma’naviy yo‘nalishlarda ko‘p tarkibli tarbiya berish lozim bo‘ladi. Muallif bu o‘rinda yuqoridagilar bilan kifoyalanmay, bola ruhi ham tarbiyalanishga muhtoj ekanligini alohida uqtiradi: “Odamning fe’l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim, – deb yozadi olim. Bolalarni o‘ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o‘z qadr-qimmatini, shaxsini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga, yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o‘rgatmoq kerak. Bolalarni shunday tarbiya etmoq lozimki, baxtga bo‘lgan intilishlari hech qachon xazon bo‘lmasin, so‘nmasin, balki ko‘karsin” [5]. Xullas, Fitratning jamiyatdagi salbiy illatlar, zararli odatlar hamda inson salomatligi, bola tarbiyasiga oid fikrlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Ko‘p asrlar davomida mutafakkir ajdodlarimizning aql-u tafakkurining ifodasi bo‘lgan fikrlar, hikmatlar, o‘gitlar, ta’limotlar bugungi kunda ma’naviy tarbiyaning asosiy vositasi sifatida xizmat qilishini amalga oshirilgan izlanishlarning natijalari yaqqol ko‘rsatmoqda. Chunki mazkur didaktik vositalar o‘quvchilarning ong ostiga tezkor ta’sir ko‘rsatib, pozitiv dunyoqarashini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Mutafakkir ajdodlarimiz birinchi navbatda, yoshlarni sabrli bo‘lishga undaganlar. Donishmandlardan biri shunday deb yozadi: “Sabr qil, oldinda shunday bir cho‘qqi borki, unga faqat yuki yengillargina chiqa oladilar”. Bu fikrlar yuksalish va insonning o‘zi ko‘zlagan maqsadga erishishini ta’minlaydigan cho‘qqi mavjudligini anglatadi. O‘qituvchilar dars va darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlar, sinf soatlarida o‘quvchilarga mazkur fikrlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib borishlari, ularni sabrli, bardoshli, maqsad sari intiluvchan qilib tarbiyalashlari, bu sohada ota-onalar bilan ham yaqin hamkorlik o‘rnatishlari maqsadga muvofiq, buning uchun ularning ajdodlarimiz merosi va pedagogik va psixologik bilimlardan xabardorlik darajasini oshirish maqsadida ular bilan

muntazam davra suhbatlari, seminarlar, individual muloqot vaziyatlarini tashkil etishlarini nazarda tutish tavsiya qilinadi [4,15].

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy, ijtimoiy uyg‘onishi va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muhim muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida aniq misollar bilan ko‘rsatganlar. Turkiston jadidchilik harakati namoyondalari yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayonlariga kengroq jalb etish, ularning madaniy, ma’naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi.

Mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlod manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat hayotida munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli shart-sharoit va imkoniyatlarni yanada kengroq yaratish borasidagi Turkiston jadidlarining qarashlari bugungi mustaqil O‘zbekistonda namoyon bo‘lmoqda. Turkiston ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan taraqqiyparvar g‘oyalar bugungi kunda ham yurtimizda yosh avlod ta’lim va tarbiyasi hamda ularning ma’naviyatini yuksaltirishda, ularni turli xil yot g‘oyalardan saqlashda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda.

## **ADABIYOTLAR**

1. Ш.Мирзиёев. Бизнинг мақсадимиз аниқ ва ўзгармасдир – демократик давлат ва фуқаролик жамияти қуриш йўлини янада қатъий давом эттирамиз. XXI asr gazetasi 2023-yil 31-may, 22 (1020), 2-bet.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: “O‘qituvchi”, 1992. B.22-23
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914, 41-son.
4. Safarova R.G., Masharipova N.R., Rustamov N.Ch. Milliy tarbiyamiz hazinasidan durdonalar (Mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarining tarbiyaga oid qarashlaridan pedagogik jarayonlarda foydalanishga oid tavsiyalar). Uslubiy tavsiyanoma. – Toshkent: “Science and Innovation”, 2024. – 84 bet.
5. Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000, 86-bet.
6. <https://oliymahad.uz/15068>